

## **“NKMK” AJning ochiqlik sohasidagi o‘z faoliyatini takomillashtirish yoki ko‘lamini kengaytirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflari:**

1. “NKMK” AJ tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga qo‘shimcha ravishda xizmat avtomobili biriktirilgan mansabdor shaxs nomi va lavozimini ham ochiq e‘lon qilish;

2. Jamiyatning rasmiy veb sayti “Ochiq ma‘lumotlar” portali alohida bo‘limda “Davlat xaridini rejalashtirish to‘g‘risida”gi ma‘lumotlarni ochiq e‘lon qilish;

3. Jamiyatning rasmiy veb sayti “Ochiq ma‘lumotlar” portali Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini belgilovchi hujjatlarni e‘lon qilish bo‘limida qo‘shimcha ravishda “NKMK” AJda hisobot davrida korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishtirilganligini imzosi bilan tanishgan xodimlar ro‘yxati e‘lon qilish;

4. Jamiyatning rasmiy veb sayti “Ochiq ma‘lumotlar” portali Manfaatlarni to‘qnashuvi holatlari haqida jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining joriy etilganligi bo‘limida qo‘shimcha ravishda “e-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan ma‘lumotlarni ham ochiq e‘lon qilish;

5. Jamiyatning rasmiy veb sayti “Ochiq ma‘lumotlar” portali Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini ko‘rish va natijalari haqida hisobdorlik tizimi yo‘lga qo‘yilganligi bo‘limida qo‘shimcha ravishda “e-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan ma‘lumotlarni ham ochiq e‘lon qilish.

## **“NKMK” AJda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar va faoliyatni yanada kuchaytirishga doir takliflar:**

1. Jamiyat haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb saytlar, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, har oyda kamida bittadan media tadbir (matbuot anjumani, brifing, press-turlar) o‘tkazish;

2. Jamiyatning ijobiy imijini shakllantirish va jamoatchilik fikrini o‘rganib borish maqsadida har chorakda kamida ikkitadan ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish;

3. Kombinat faoliyatiga doir ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka tanishtirish maqsadida ommaviy axborot vositalari va bloggerlar bilan hamkorlik qilish tizimini yanada kuchaytirish;

4. Muntazam ravishda OAVlarida “NKMK” AJ rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish;

5. Jamiyatning faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o‘rganish, takliflar ishlab chiqish;

6. Jamiyat faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib etish va sifatli yoritishni tashkil etish, bu borada axborot materiallari (bosma mahsulotlar, foto-, audio-, videomateriallar va h.k.) tayyorlash va yoritib borish;

7. Jamiyat faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda rasmiy veb saytga joylashtirish, foto-audio- va videomateriallardan iborat ma'lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilab borish;

8. Jamiyatning faoliyatiga aloqador barcha ochiq ma'lumotlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda doimiy yangilab borish.